

# Qurilish ishlari

## RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **125,3** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **3,8 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **78,2 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi- **18,0 foiz**


Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 125,3 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 6,1 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 4,7 mlrd.so'mni yoki 104,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 foiz punktga o'sgan.


## 2018 yil yanvar-mart oylari

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shaxrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 0,2 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 17,5 foizni, mos ravishda, Oq oltin tumanida – 0,3 mlrd.so'm yoki 60,5 foizni, Sayhunobod tumanida – 0,4 mlrd.so'm yoki 70,3 foizni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari (mlrd.so'm)




**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati  
2018 yil yanvar-mart uchun**



**2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>125,3</b>	<b>106,1</b>
Guliston sh	46,5	127,4
Shirin sh	5,7	97,3
Yangier sh	10,7	95,1
Boyovut	9,6	102,8
Guliston	5,8	101,2
Mirzaobod	9,4	96,7
Oqoltin	8,6	106,7
Sardoba	4,0	144,4
Sayxunobod	4,2	92,2
Sirdaryo	13,2	102,1
Xovos	7,6	67,8

**2018 yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlari  
umumiy hajmida hududlarning ulushi  
(umumiy hajmga nisbatan %da)**




Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 37,1 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,5 % ni, Yangier shaxrida 8,5 % va Boyovut tumanida 7,7 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,2 % ni va Sayxunobod tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.


## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

yanvar-mart 2017



yanvar-mart 2018



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 114,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 91,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 foiz punktiga pasaydi.

Joriy davrda Guliston tumani bo'yicha jami qurilish ishlari xajmida nodavlat sektorining ulushi 83,2 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga pasaydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Boyovut 79,4 foizga (1,4 foiz punktga), Xovos tumanida 75,1 foizga (18,9 foiz punktga) pasaydi, Shirin shahrida (100,0 foizni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
G.Muxraximova  
(0371) 230-86-27